

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
PEDAGOGIKAUNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

DJALALOVA MOXINUR ABDUSATTOR QIZI

**MAKTABGACHA YOSH DAVRI (6-7 YOSH) BOLALARIDA RUHIY
SALOMATLIK VA AGRESSIVLIK HOLATLARINING O‘ZARO
BOG‘LIQLIGI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on psychological
sciences**

Djalalova Moxinur Abdusattor qizi

Мaktabgacha yosh davri (6-7 yosh) bolalarida ruhiy salomatlik va
agressivlik holatlarining o'zaro bog'liqligi..... 3

Джалалова Мохинур Абдусаттор кизи

Взаимосвязь между психическим здоровьем и состоянием агрессивности
у детей дошкольного периода (6-7 лет) 24

Djalalova Moxinur Abdusattor qizi

Relationship between mental health and aggressiveness in preschool
children (6-7 years ages) 45

E'lon qilingan ishlar o'xhati

Список опубликованных работ
List of published works..... 50

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
PEDAGOGIKAUNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

DJALALOVA MOXINUR ABDUSATTOR QIZI

**MAKTABGACHA YOSH DAVRI (6-7 YOSH) BOLALARIDA RUHIY
SALOMATLIK VA AGRESSIVLIK HOLATLARINING O‘ZARO
BOG‘LIQLIGI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PHD/P631 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Isakova Mu'azam Tulkinovna
psixologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kamilova Nodira G'ayratovna
psixologiya fanlari doktori, professor

Ahrorov Vorisxon Yunusovich
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti.

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi **PhD.03/30.12.2021.P.26.02** raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «__» _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro'yhatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil «____»_____da tarqatildi.

(2025-yil «____» _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi

F.A. Akramovna
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

N.B. Atabaeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

Z.T. Nishanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, psixologiya fanlari doktori., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon bo'yicha insonning ruhiy salomatligi muammosini hal etish muhim ahamiyatga ega. 2017-yilga kelib, 792 million ruhiy kasallikka chalingan shaxslar ro'yxatga olingan - bu sayyoramiz aholisining 10,7 foizini tashkil qiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich 970 million kishiga o'sdi, dunyodagi har sakkizinchi kishi ruhiy kasallikka chalingan. Ming afsuski, ular orasida bolalar ham bor. «Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti so'nggi 15 yil ichida dunyodagi ruhiy salomatlik holatining eng keng qamrovli sharhini e'lon qildi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yilda Yevropa mintaqasida yashovchi 870 million kishining taxminan 100 millioni tashvish va depressiyani, agressiyani boshdan kechirmoqda»¹. Bugungi kunga kelib, ruhiy salomatlik bolalarning agressivlik holatlari dolzarb muammolardan bo'lib kelmoqda.

Jahon oliy ta'lim tashkilotlari va ilmiy-amaliy markazlarida maktabgacha yosh davri bolalarida ruhiy salomatlik va agressivlik holatlarining o'zaro bog'liqligi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda bolalarning salomatligi masalasiga jiddiy e'tibor qaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib shaxslarning emotsional holatlarini o'rganish, ularga yordam berish choralarini ko'rish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga bog'liq holda bolalarning agressivlik holatlarini o'ziga xos xususiyatlarini, uning turlicha namoyon bo'lishini ochib berish imkoniyatini beradigan tegishli empirik material hamda ularni ilmiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha doimiy ravishda tadqiqotlarni olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda maktabgacha yosh davri bolalarida ruhiy salomatlik va agressivlik holatlarining o'zaro bog'liqligi tadbiq etish orqali ularni ruhiy salomatligini saqlash masalasi doimo birinchi o'rinda ekanligini ta'kidlash o'rindir. «Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi»² - deb ta'kidlagan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. Maktabgacha yosh davri bolalariga bo'lgan e'tibor, bu borada yangi islohotlarni qarorlarni qabul qilish, ularning psixologik salomatligini saqlash, agressivlik holatlarini bartaraf etish va bu orqali yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishlari uchun zamin hozirlash zarur bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni, 2019-yil 13-fevraldagi «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4190-sonli, 2023-yil 16-iyundagi «Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/21/health/>

² Maktabgacha ta'lim sohasida zamonaviy tizim yaratiladi (president.uz) sayti ma'lumotlari asosida

tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-196-sonli Qarorlarida³ aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish, ruhiy holat buzilishlarini erta aniqlash, ularga tashxis qo‘yish, ruhiy holati buzilgan shaxslarni davolash sifatini oshirish, sohada samarali boshqaruv tizimini joriy etish vazifalari belgilangan. Ushbu qarorning aynan 5-bandida maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ruhiy salomatligi masalasi borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilishi ta‘kidlab o‘tilgan. 2018-yil 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3955-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi «Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida»gi⁴ 802-son qaroriga muvofiq 2018-yilda ishlab chiqilgan «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi, 2019-yil 8-maydagi «Maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-sonli⁵, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2019-yil 22-oktabrdagi «Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlar doirasida belgilangan strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, madaniy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonlik olimlaridan F.A.Akramova, S.X.Jalilova, M.T.Isakova, Z.R.Ibodullayev, N.G.Kamilova, M.X.Karamyan, V.M.Karimova, O.Musurmanova, Z.T.Nishonova, Z.A.Rasulova, K.Risqulova, F.F.Rasulova, Sh.M.Sodiqova, N.A.Sog‘inov, B.M.Umarov, G‘.B.Shoumarov va boshqa psixolog olimlar inson ruhiy salomatligini o‘rganish muammosi, inson salomatligini ta‘minlashda ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy guruhlar va mehnat jamoalaridagi holatlar, oila va undagi shaxslararo munosabatlardagi turli psixoemotsional buzilishlar, uning kelib chiqish sabablari, psixosomatik kasalliklarni yengishning ijtimoiy-psixologik jihatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan: V.G.Alyamovskaya, L.M.Brusilovskiy, I.V.Dubrovina, I.V.Davydovskiy, I.A.Furmanov, Z.P.Krasnoshlyk, V.P.Kaznacheev, G.A.Kuraev, M.I.Lisina, M.Y.Mudrov, G.S.Nikiforov, S.B.Semychev, S.K.Sergeyev, A.I.Zaxarov, Y.V.Shlenov, I.N.Smironov, A.T.Shatalov va boshqalarning ilmiy ishlarida aynan maktabgacha yosh davri bolalarining ruhiy salomatligi masalasining turli mezonlari, ulardagi agressivlik holatlarining belgilari va omillarini ko‘rishimiz mumkin.

³ <https://lex.uz/ru/docs/-6505600>

⁴ <https://lex.uz/docs/-5179335>

⁵ <https://lex.uz/docs/-4327235>

Xorij olimlaridan V.Frankl, F.Roxas, D.I.Feldshteyn, B.S. Bratus, F.Perls, Z.Freyd, S.L.Frank, S.P.Botkin, Y.P.Lisitsin, A.Maslou, O.P.Shchepin, D.D.Venediktov, V.P.Petlenko, A.M.Izutkin, I.I.Brexman, G.I.Tsaregorodtsev, V.G.Eroxin, C.D.Kind, K.J.Karlson, C.Chiang, R.Koen, Ch.Boorse va boshqalar tomonidan inson ruhiy salomatligi, uni ta'minlash, bolalarning agressiv holatlari uni yuzaga chiqaruvchi omillar, sabablar majmui ilmiy tadqiq etilgan. Ta'kidlash o'rinliki, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ruhiy salomatligi muammosi barcha mutaxassislar tomonidan inobatga olinsa-da, aynan maktabgacha yosh davri bo'yicha bolalarning ruhiy salomatligi muammosi, uning ijtimoiy psixologik omillari, xususiyatlari, yuzaga chiqaruvchi belgilari bo'yicha aniq, to'laqonli izlanishlar mintaqada yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170930223 - raqamli «Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish» mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan (2018-2020-yy.).

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha yosh davri bolalarida agressivlik va ruhiy salomatlik holatining o'zaro bog'liqligini tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

6-7 yoshli bolalarning ontogenetik taraqqiyotiga ko'ra bolaning o'z «Men» haqidagi tasavvurlarini kattalar fikriga bog'liq shakllanishidagi pozitiv va salbiy emosional jihatlar situativ xulq kongruentligi asosida aniqlashtirish;

maktabgacha yosh davridagi bolalar ruhiy salomatligiga agressiv holatlarning ta'siri situativ xarakterda namoyon bo'luvchi vegetativ, emotsional belgilarning intensivligi orqali o'zgaruvchi ijtimoiy ko'nikmalarga identivligi aniqlashtirish;

bolalarning kattalar bilan munosabatlariga ko'ra shaxs ruhiy salomatligining «bola-ota-ona», «bola-tarbiyachi» muloqoti modalligini belgilab beruvchi bolani hissiy o'zini baholashiga oid sub'yektiv omillarni dalillash;

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning agressiv holatlarini bartaraf etishda konstruktiv muloqot ko'nikmasi va empatiyani bola tomonidan kattalar xulqini qadriyatlar asosida identifikatsiyalanishiga muvofiq rivojlantirish zarurligini dalillash.

Tadqiqotning obyektini Farg'ona shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 5–va 27-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 101 nafar tarbiyalanuvchilari, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 5–sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining 51 nafar, Farg'ona viloyati Quva tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 15–sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining 47 nafar tarbiyalanuvchi bolalar, ularning 199 nafar ota-onalari hamda 113 nafar tarbiyachilar tashkil etadi. Respondentlarning umumiy soni 511 nafardan iborat.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha yosh davri bolalarida ruhiy salomatlik va agressivlik holatlarining o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etish va ruhiy salomatligining namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi: bolalardagi agressivlik holatlarni aniqlash uchun I.P.Podlasiyning «O‘zingni angla» so‘rovnomasi; tarbiyalanuvchilarning tajovuzkor xulqini aniqlash uchun Y.K.Lyutova va G.B.Moninalarning «Agressiya belgilari» so‘rovnomasi; ota-onalarga o‘z farzandlarining agressivlik holatlari va xulqini tahlil qilish uchun A.Ramonovaning «Bola kattalar nigohida» test metodikasi; ota-onalarning agressivlik darajasini o‘rganish uchun A.Asingerning «Agressivlik darajasi» so‘rovnomasi; 5-7 yoshli bolalarga mo‘ljallangan o‘zini-o‘zi baholash uchun V.G.Shchurning «Zinapoya» metodikasi; tarbiyachilar va ota-onalar uchun V.Stolinaning «Ota-onalar va pedagoglarning bolalarga bo‘lgan munosabatlari so‘rovnomasi». Olingan natijalar matematik-statistik usullar, Studentning t-mezoni, X^2 mezoni, Pirson korrelyatsiyasi metodlari orqali tadqiqotda qo‘lga kiritilgan miqdoriy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi va Microsoft Office Excel va SPSS statistik dasturlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

6-7 yoshli bolalarning ontogenetik taraqqiyotiga ko‘ra maktabgacha yosh davrida ruhiy salomatlik hissiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishni shaxslararo munosabatlar negizida namoyon bo‘lishi bilan identivligi tufayli bolaning o‘z «Men» haqidagi tasavvurlarini kattalar fikriga bog‘liq shakllanishidagi pozitiv va salbiy emotsional jihatlar situativ xulq kongruentligi asosida aniqlashtirilgan;

maktabgacha yosh davridagi bolalar ruhiy salomatligiga agressiv holatlarning ta’siri bolalarning o‘zgaralarni e’tiborini jalb qilishdagi impulsiv-namoyishkorona xatti-harakatlari, yoqtirgan o‘yinchoqlariga erishish istagida aks etgan jismoniy faolligi bilan bog‘liqligiga ko‘ra situativ xarakterda namoyon bo‘luvchi vegetativ, emotsional belgilarning intensivligi orqali o‘zgaruvchi ijtimoiy ko‘nikmalarga identivligi aniqlashtirilgan;

bolalarning kattalar bilan munosabatlariga ko‘ra tarbiyachi va ota-onalarning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani emosional qabul qilganlik darajasi orqali o‘zaro aloqalardagi xavotir hissi va agressiv reaksiyalar vektorini hosil bo‘lishiga asoslanib shaxs ruhiy salomatligining «bola-ota-ona», «bola-tarbiyachi» muloqoti modalligini belgilab beruvchi bolani hissiy o‘zini baholashiga oid sub’yektiv omillar dalillangan;

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning agressiv holatlarini bartaraf etishda impulsiv-namoyishkorona harakatlar, qoidalarga bo‘ysunmaslik, atrofga nisbatan tajovuzkorlik kabi salbiy odatlarga emotsiyalarni barqarorlashtirish orqali ta’sir etish muhimligiga ko‘ra konstruktiv muloqot ko‘nikmasi va empatiyani bola tomonidan kattalar xulqini qadriyatlar asosida identifikatsiyalanishiga muvofiq rivojlantirish zarurligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bolalarning ruhiy salomatligi masalasi xususiyatlarini o'rganishda qo'llanilgan uslubiy vositalar amaliyotda aabrabatsiya qilingan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ruhiy salomatligini yaxshilash va agressivlik holatlarini pasaytirish uchun psixokorreksion dastur ishlab chiqilib amaliyotga kiritilgan;

tadqiqot ishi natijalari ota-onalar va tarbiyachilar mehnat faoliyatini amalga oshirishda foydalanishga tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishi jarayonida to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi; avvalo, tadqiqotda qatnashgan sinaluvchilarning mos ravishda tanlab olinganligi; olingan amaliy natijalarning ilmiy jihatdan asoslanganligi; jahon psixologiyasida tajribalardan ko'p marotaba o'tkazilgan test va so'rovnomalardan foydalanilganligi; olingan amaliy natijalar nazariy konseptual jihatdan yoritib berilganligi; amaliy natijalar miqdoriy ko'rsatkichlari matematik-statistikaning ishonchli metodlari ya'ni Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti, X^2 mezon, Styudentning t-mezon metodlari yordamida tahlil qilinganligi, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlardan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi va xodimlariga bolalarga ta'lim-tarbiya berishda amaliy yordam beradi. Bundan tashqari, bu ma'lumotlardan reabilitatsiya markazlari xodimlari bolalarda psixik jarayonlarning keskin o'zgarishlari va o'z-o'ziga baho berishning psixologik tomonlarini tushunishlarida foydalanishlari mumkin. Shu bilan birga, ular ota-onalarga bola tarbiyasida psixologik ko'mak sifatida xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari psixologlari uchun psixologik yordam sifatida uslubiy qo'llanma vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar, olingan natijalar «Umumiy psixologiya», «Psixologiya tarixi», «Ontogenez va rivojlanish psixologiyasi», «Yosh davrlar psixologiyasi», «Rivojlanish va pedagogik psixologiya», «Muloqot psixologiyasi», «Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya», «Eksperimental psixologiya va praktikum», «Aholining psixologik salomatligi», «Salomatlik psixologiyasi» kabi psixologiya tarmoqlarini ma'lumotlar bilan boyitadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. maktabgacha yosh davri bolalarida agressivlik va ruhiy salomatlik holatining o'zaro bog'liqligini bo'yicha olingan tadqiqot ishi natijalari asosida:

6-7 yoshli bolalarning ontogenetik taraqqiyotiga ko'ra maktabgacha yosh davrida ruhiy salomatlik hissiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishni shaxslararo munosabatlar negizida namoyon bo'lishi bilan identivligi tufayli bolaning o'z «Men» haqidagi tasavvurlarini kattalar fikriga bog'liq shakllanishidagi pozitiv va salbiy emotsional jihatlar situativ xulq kongruentligi asosida aniqlashtirilgan ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2025-yil 23-avgustdagi 442-son buyrug'i bilan «Ontogenez va rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika

universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2025-yil 20-avgustdagi 442a-son ma'lumotnomasi). Natijada, ruhiy salomatlik hissiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishni shaxslararo munosabatlar negizida namoyon bo'lishi aniqlanishiga erishilgan;

maktabgacha yosh davridagi bolalar ruhiy salomatligiga agressiv holatlarning ta'siri bolalarning o'zgalarni e'tiborini jalb qilishdagi impulsiv-namoyishkorona xatti-harakatlari, yoqtirgan o'yinchoqlariga erishish istagida aks etgan jismoniy faolligi bilan bog'liqligiga ko'ra situativ xarakterda namoyon bo'luvchi vegetativ, emotsional belgilarning intensivligi orqali o'zgaruvchi ijtimoiy ko'nikmalarga identivligi aniqlashtirilgan haqidagi ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2025-yil 23-avgustdagi 442-son buyrug'i bilan «Ontogenez va rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2025-yil 20-avgustdagi 442a-son ma'lumotnomasi). Natijada, maktabgacha yosh davridagi bolalar ruhiy salomatligiga agressiv holatlarning ta'siri va ijtimoiy ko'nikmalarga identivligi aniqlashtirilishiga erishilgan;

bolalarning kattalar bilan munosabatlariga ko'ra tarbiyachi va ota-onalarning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani emosional qabul qilganlik darajasi orqali o'zaro aloqalardagi xavotir hissi va agressiv reaksiyalar vektorini hosil bo'lishiga asoslanib shaxs ruhiy salomatligining «bola-ota-ona», «bola-tarbiyachi» muloqoti modalligini belgilab beruvchi bolani hissiy o'zini baholashiga oid sub'yektiv omillar dalillanganligi borasidagi ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2025-yil 23-avgustdagi 442-son buyrug'i bilan «Ontogenez va rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2025-yil 20-avgustdagi 442a-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak pedagog-psixolog mutaxassislarni oilada «ota-ona–bola» munosabatlari psixologiyasiga oid o'quv mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirishga erishilgan;

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning agressiv holatlarini bartaraf etishda impulsiv-namoyishkorona harakatlar, qoidalarga bo'ysunmaslik, atrofga nisbatan tajovuzkorlik kabi salbiy odatlarga emotsiyalarni barqarorlashtirish orqali ta'sir etish muhimligiga ko'ra konstruktiv muloqot ko'nikmasi va empatiyani bola tomonidan kattalar xulqini qadriyatlar asosida identifikatsiyalanishiga muvofiq rivojlantirish zarurligi dalillangan to'g'risidagi ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2025-yil 23-avgustdagi 442-son buyrug'i bilan «Ontogenez va rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2025-yil 20-avgustdagi 442a-son ma'lumotnomasi). Natijada, maktabgacha yosh davri boalarida ruhiy salomatlik holatlarini pozitivlashtirish, agressiv holatlarini pasaytirishga qaratilgan korreksion ishlarni amalga oshirish sharoiti yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza shaklida bayon etilib, ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta (5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnal) maqola hamda 5 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari materiallari to'plamida o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, obyekt, predmet, metodlari, farazi, himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar, ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Birinchi bob «**Maktabgacha yosh davri bolalarining ruhiy salomatligi borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar**» deb nomlangan. Mazkur bobning «Ruhiy salomatlik» tushunchasini psixologik manbalarda qo'llanilishi va uning ilmiy-nazariy asoslari» deb nomlangan birinchi paragrafida ruhiy salomatlik tushunchasi, uning mazmun-mohiyati psixologik adabiyotlarda qo'llanilishi, Demokrit, Platon, Suqrotning yaratgan asarlarida ruhiy salomatlikning ilk kurtaklari keltirib o'tilganligi, V.Frankl, A.Maslau, D.I.Feldshteynning asarlarida ruhiy salomatlik mezonlariga to'xtalib o'tilganligi, xorijiy psixolog B.S.Bratusning asarlarida «ruhiy salomatlik», «psixologik salomatlik» va «shaxsiy salomatlik» tushunchalari qo'llanilishi, I.V.Dubrovina, O.V.Xuxlayeva tadqiqotlarida «psixologik salomatlik» tushunchasi qo'llanilishi atroflicha bayon etilgan. Shuningdek, bu paragrafda xorij adabiyotlarida salomatlikning muhim asoslarini aniqlash va «salomatlik» tushunchasini shakllantirish muammosi bilan M.Ya.Mudrov, S.P.Botkin, A.A.Ostroumov, I.V.Davydovskiy, V.P.Kaznacheev, Yu.P.Lisitsin, O.P.Shchepin, D.D.Venediktov, V.P.Petlenko, A.M.Izutkin, I.I.Brexman, G.I.Tsaregorodtsev, Yu.M.Komarov, U.A.Kagermazov, I.N.Smironov, L.M.Brusilovskiy, V.G.Eroxin, T.V.Karsaevskaya, A.A.Gorelov, A.T.Shatalov va boshqa xorijiy olimlar va amaliyotchilar shug'ullanganligi keltirib o'tilgan. Mavzu doirasidan Sharq olimlari Abu Ali ibn Sino, Ismoil Jurjoniy va zamondosh olimimiz Z.Rahimovning asarlarida mazkur muammoning nazariy jihatlari talqin qilinganligi va respublikamizda salomatlik psixologiyasi muammolari ustida tadqiqot olib borgan psixolog olimlardan F.A.Akramova, S.X.Jalilova, M.T.Isakova, Z.R.Ibodullayev, N.G.Kamilova, M.X.Karamyan, V.M.Karimova, O.Musurmanova, Z.T.Nishonova, Z.A.Rasulova, K.Risqulova, Sh.M.Sodiqova, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, G.B.Shoumarov

tomonidan o'rganilganligi bayon etilgan. Birinchi bobning «Maktabgacha yosh davridagi bolalarda ruhiy salomatlik muammosining G'arb va Sharqda o'rganilishi» deb atalgan ikkinchi paragrafida aynan maktabgacha yosh davrida ruhiy salomatlik muammolari bilan shug'ullangan Sharq va G'arb olimlarining ilmiy izlanishlari fikr-muloxazalari tadqiqotlari tahlil etilgan. Xorij olimlar J.Korchak, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, A.A.Uxtomskiy, V.M.Bexterev, M.I.Astvatsurov, A.Suvorov asarlarida bolaning ruhiy salomatligi uni ijtimoiy muhiti bilan bog'lik ekanligi ta'kidlangan. Ushbu bobda V.G.Alyamovskaya, G.Ammon, E.Bern, I.V.Dubrovina, A.I.Zaxarov, Y.L.Kolominskiy, M.I.Lisina, G.S.Nikiforov, S.B.Semychev, E.A.Xaritonov va boshqalarning asarlari hamda ilmiy tadqiqot ishlarida maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligini tatbiq qilinganligini keltirib o'tilgan. Shuningdek, Sharq adabiyoti manbalarida Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Abu Ali ibn Sino asarlarida bolani ruhiy salomatligi haqida yozib qoldirilgan qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**6-7 yoshli bolalarning agressivlik darajasi va ruhiy salomatlik metodologiyasi**» deb nomlanib, ushbu bobda bog'cha yoshidagi bolalarning agressiv darajasi, uning yuzaga kelish omillari oilaviy muhit va undagi o'zaro munosabatlarga aloqadorlik jihatlari bayon etilgan. Olib borilgan metodikalarning metodologik asosi va mohiyati yoritib o'tilgan. Mazkur bobda 6-7 yoshli bolalarning jismoniy salomatligini o'rganish uchun dastlabki diagnostik ishlar va ularning antropometrik belgilarining natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**6-7 yoshli bolalar agressivlik holatini ruhiy salomatligiga ta'sirining empirik tahlili**» deb nomlanib, unda bolalarning ruhiy salomatligi, agressiv holatlari, ularning psixodiagnostikasi natijalarini empirik o'rganish, shahar va qishloq bolalarining agressiv holatlarning namoyon bo'lishining empirik taqqoslash natijalari bayon etilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining agressiv holatlarini ota-onalariga bog'liqligi va xususiyatlari amaliy tahlili keltirib o'tilgan. Mazkur bobda olib borilgan aniqlovchi tajriba va nazorat tajriba natijalari keltirilgan. Uchinchi bobning «6-7 yoshli bolalar agressivlik holatini empirik o'rganish» deb nomlangan birinchi paragrafida bolalarning agressiv xususiyatlari, ularni tabiatga, jamiyatga, atrofdagilarga nisbatan munosabati o'rganildi. Bunda bolalar tajovuzkorlik holatida ularda kuzatiladigan vegetativ belgilar, ya'ni yuzlarning qizarishi, lablarini tishlashi, ko'zlarini qisilishi va nazoratsiz harakatlari, aniqlangan. Ota-onalar va tarbiyachilarning bolaga bo'lgan munosabatini aniqlash ishlari tahlil qilingan. Shuningdek bolaning 6-7 yoshdagi o'ziga bo'lgan munosabati, ya'ni o'zini-o'zi anglashi, o'ziga bergan bahosi ham diagnostika qililib, jinslar bo'yicha o'ziga bergan bahosi qiyoslanganligi, keltirib o'tilgan.

Tadqiqotda qishloq va shahar bolalarining agressivlik holatlarini «O'zingni angla» metodikasi bo'yicha natijalari quyidagi 1-jadvalda hududlar kesimida aniqladik.

**I.P.Podlasiyning «O‘zingni angla» metodikasini Mann-Uitni
mezoni bo‘yicha statistik tahlili**

Savollar	Hudud	Sinaluvchilar soni	O‘rtacha arifmetik qiymat	U	p
Siz bog‘chadagi tartib qoidalarga bo‘ysunasizmi?	Shahar	101	84,	3507,500	,576
	Qishloq	98	88,		
Siz bolalarning ustidan kulasizmi? Masalan:bolalar yiqilib tushsa, yig‘lasa yoki topshiriqni bajara olmasa	Shahar	101	109	2028,500	,000***
	Qishloq	98	70,		
Sizga tengdoshlaringiz bilan mushtlashish yoqadimi?	Shahar	101	105,	2275,000	,000***
	Qishloq	98	72,		
Sizda o‘rtoqlaringizni gaplashayotganda, o‘ynayotganda o‘yinda ajratib qo‘yish holatlari uchraydimi ?	Shahar	101	124,	2425,500	,000***
	Qishloq	98	74,		
Siz hayvonlarni yaxshi ko‘rasizmi?	Shahar	101	87,	3712,500	,001***
	Qishloq	98	111,		
Sizga daraxtlarni parvarishlash yoqadimi?	Shahar	101	113,	3514,500	,000***
	Qishloq	98	85,		
Bolalarga laqab qo‘yish odobdanmi?	Shahar	101	111,	3762,000	,001***
	Qishloq	98	88,		

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$; *** $p \leq 0,001$.

Yuqoridagi 1-jadvalda shaharda yashovchi 6-7 yoshli bolalar qishloqda yashovchi bolalarga qaraganda metodika mezonlari bo‘yicha yuqori natijalarni qayd etishdi, bunda ular qishloqdagi tengdoshlariga nisbatan tajovuzkorroq ekanligi anglash mumkin, chunki qishloq bolalari ikkita mezon bo‘yicha yuqori natijalarni ko‘rsatdilar. Bog‘chadagi qoidalarga bo‘ysunmaslik, hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabat yuqoriligini ko‘rish mumkin. Chunki qishloq bolalari egasiz hayvonlarga

nisbatan negativ munosabatda ekanliklarini ta'kidlaganlar. Qolgan 5ta savollarga esa shahar bolalarning negativ fikrlarini ko'rishimiz mumkin. Ularda kattalar nazoratining yetishmasligi va yaqinlari tomonidan atrof-olamni asrash zarur ekanligi singdirilmagan. Shahar bolalarida tengdoshlari bilan mushtlashish ko'proq aniqlandi, sababi bu bolalar oilaviy munosabatlarda ota-onasiga taqlid qilishmoqda, ya'ni ularda impulsivlik yuqori.

Tadqiqotda bolalarining agressivlik holatlari: o'zgalarni xafa qilish, o'z tajovuzkorligiga munosabati, boshqalarning mavjudligiga sezgirlikni aniqlash bo'yicha yana empirik tajribalar o'tkazildi. Bolalar «Bola kattalar nigohida» metodikasi bo'yicha quyidagi 2-jadvalda belgilarning qaysi biri hududlar kesimida baland ekanligini tahlili keltirib o'tildi.

2-jadval.

A.Romanovanning «Bola kattalar nigohida» metodikasi mezonlari bo'yicha natijalari (n = 199)

Ko'rsatkichlar	Hudud	Ishtirokchilar soni	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	p
O'z tajovuzkorligiga munosabatning xususiyatlari	Qishloq	98	1,8889	1,26078	-3,437	0,001***
	Shahar	101	2,5657	1,49940		
Insoniy tuygularning namoyon bo'lishida yetishmovchilik	Qishloq	98	1,8788	1,26388	-3,532	0,001***
	Shahar	101	2,4949	1,18987		
Boshqalarning mavjudligiga sezgirlik	Qishloq	98	2,3939	1,02835	-3,915	,000***
	Shahar	101	1,8265	1,00540		
Obyektga qaratilgan jismoniy tajovuz	Qishloq	98	1,8571	1,02545	-3,378	0,001***
	Shahar	101	2,3838	1,15800		
Vegetativ belgilar	Qishloq	98	2,0303	1,44600	2,920	,004*
	Shahar	101	1,5758	,55496		

Izoh: *p≤0,05; ** p≤0,01; *** p≤0,001.

Shahar va qishloq hududida istiqomat qiluvchi 6-7 yoshli bolalarning otalaridan A.Ramonovanning «Bola kattalar nigohida» so'rovnomasini o'tkazdik Bu

metodikaning mezonlari bo'yicha ham ahamiyatli farqlar hududlar kesimida mavjud ekanligini inobatga olib, shu bo'yicha tahlil qilib chiqdik.

Shaharda yashovchi bolalar va qishloq bolalari o'rtasida «O'z tajovuzkorligiga munosabatning xususiyatlari» mezoni bo'yicha $t=-3,437$; $p\leq 0,001$ ahamiyatga molik farq aniqlandi. Unda shahar bolalari ustun bo'lib, ular o'zlarining tajavuzkor xulqiga munosabati shakllanmaganligini ko'rishimiz mumkin, chunki olingan metodikalarning natijasiga qaraganda shahar hududida yashovchi respondentlarning agressivlik darajasi baland. Shuning uchun ularda bu xususiyat shakllanmagan, ya'ni ular xulqidagi bu o'zgarishni oddiy qabul qiladilar yoki shundek bo'lishi kerak deb hisoblaydilar.

«Insoniy tuyg'ularning namoyon bo'lishida yetishmovchilik» mezoni bo'yicha 6-7 yoshli bolalarda hududlar kesimida ahamiyatli farqlar aniqlandi. Unga asosan, $t=-3,532$; $p\leq 0,001$ bo'lib, shaharda yashovchi bolalarda insoniy tuyg'ularni namoyon bo'lishida yetishmovchiliklar mavjud ekanligi aniqlandi. Sababi ular atrofdagi tengdoshlari qo'ni-qo'shnilar bilan muntazam muloqot jarayonida bo'lmaydilar, aksincha, bog'chadagi tengdoshlari bilan faqat bog'chada muloqot qilishlari mumkin qolgan vaqtlarini uyda yolg'iz o'tkazadilar. Bunday holat ham bolada insoniy tuyg'ular yetishmasligiga olib keladi.

«Boshqalarning mavjudligiga sezgirlik» mezoni bo'yicha qishloq bolalari ustun ekanligi aniqlandi, ya'ni natija bilan ahamiyatga molik farqlar aniqlandi, $t=-3,915$; $p\leq 0,001$. Unga asosan boshqalarning mavjudligiga sezgirlik ularni tushunish qobiliyati qishloq bolalarida shahar bolalariga qaraganda kuchliroq shakllangan bo'lib, 6-7 yoshli qishloq bolalari boshqalarni empatik his qilaoladilar. Bu holat esa ulardagi qadriyatlar tizimi asosida tarbiyalanayotganligidan dalolat beradi.

«Obyektga qaratilgan jismoniy tajovuz» mezoni bo'yicha shahar bolalari ahamiyatli farq bilan ustunlikka ega ekanliklari tahlil qilindi, unga ko'ra, $t=-3,378$; $p\leq 0,001$ bo'lgan farq aniqlandi. Shahar bolalarning aksariyatida obyektga qaratilgan tajovuzkorlik yuqori ekanligi aniqlandi. 6-7 yoshli shahar bolalarining ota-onalari qayd etishicha, ular tajovuzkor xulqini obyektga o'yinchoqlarga, predmetlarga qaratishlari, ya'ni alamini boshqa buyumlardan olishlari mumkin ekanligi tahlil qilindi. Bu holat bolalardagi impulsivlik mavjudligidan dalolat beradi. Ota-ona tomonidan bolalarga bildirilgan munosabat ham bolani agressiv xulqli bo'lishiga zamin yaratadi.

«Vegetativ belgilar» mezoni bo'yicha ham ahamiyatli farqlar aniqlandi, bu mezonda qishloq bolalari ustun ahamiyatli farq esa $t=2,920$; $p\leq 0,05$ ni tashkil etmoqda. Bu belgi bolaning jahli chiqqanda qizil yoki oq rangga aylanishi yoki achchiqlanish yoki g'azab holatida lablarni yalashi bo'lib, qishloq bolalari jahlini shu tariqa vegetativ belgilar asosida bosishga urinadilar. Shu bois ham bu mezon bo'yicha ularning natijalari shaharlik tengdoshlariga qaraganda baland ekanligini ko'rishimiz mumkin.

6-7 yoshli respondentlarning orasida hududlar kesimida «Bola kattalar nigohida» metodikasi bo'yicha shu mezonlarda ahamiyatga molik farqlar aniqlandi, qolgan mezonlar bo'yicha hududlar kesimida ahamiyatli farq aniqlanmadi.

Biz tadqiqotimizda aynan bolada refleksivlik mavjud emasligini, impulsivlik bor ekanligini inobatga olib, ularni xulqini tahlil qilishda ota-onalari va tarbiyachilardan ham metodikalarni olib aniqlik kiritishni maqsad qilib olganmiz. Chunki V.Davidov tomonidan refleksiya o'rganilgan va aynan u o'zining ilmiy tadqiqot natijalariga asoslanib, maktabgacha yosh davri bolalarida refleksivlik mavjud emas deb isbotlab bergan, ya'ni refleksivlik – bu insonni o'z-o'zini tahlil qilish, o'z xayollarini o'ylash, hissiyotlarini tushunish qobiliyatidir. Ularda ko'proq impulsivlik, ya'ni tashqi sharoitlar ta'sirida yoki hissiy tajribalar tufayli nazoratsiz harakat qilish kuzatiladi. 6-7 yoshli bolalarning xulqidagi o'zgarishlar, ota-onalari va tarbiyachilarining bolaga bo'lgan munosabati ham tahlil qilindi natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval.

V.Stolinaning «Ota-onalar va pedagoglarning bolalarga bo'lgan munosabatlari so'rovnomasi» natijalari (Styudentning t-mezeni bo'yicha) (n-236)

T/r	Ko'rsatkich	Ishtirokchilar turi	Ishtirokchilar soni	O'rtacha arifmetik qiymati	Standard og'ish	p
1	Qabul qilingan	Tarbiyachilar	113	5,9	1,76	0,05*
		Ota-onalar	121	4,1	1,62	
2	Kooperatsiya	Tarbiyachilar	113	4,7	1,37	,777
		Ota-onalar	121	4,8	1,37	
3	Avtoritar	Tarbiyachilar	113	3,1	1,27	0,05*
		Ota-onalar	121	4,9	1,17	
4	Kichik omadsiz	Tarbiyachilar	113	3,2	1,68	,067
		Ota-onalar	121	2,5	1,31	

Izoh: * $p \leq 0,05$;


Yuqoridagi 3-jadvaldan ma'lumki, «Qabul qilingan» shkalasi ota-onalar va tarbiyachilar natijasi bo'yicha $p \leq 0,05$ ahamiyatli farqlar mavjud bu mezon bo'yicha bolani boricha qabul qilish ota-onalarga qaraganda tarbiyachilarda ustunligini ko'rishimiz mumkin. Demak tarbiyachilar bolalar bilan ko'p ishlaganliklari uchun o'zlari ham bolalarcha beg'uborlik alomatlari borligi sababli bu ko'rsatkichda ustunlikka erishdilar.

«Kooperatsiya» mezon bo'yicha bolalarning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirib, ular bilan o'zlarini teng ko'rib, ishonib, bahsli savollarda ularni fikrlarini qabul qilishga qodir bo'lishlari yuzasidan ota-onalar va tarbiyachilarda natijalar o'rtasida ahamiyatli farq aniqlanmadi ya'ni $p \geq ,777$ ko'rsatkichli ekanligi aniqlandi. Demak ota-onalar va tarbiyachilar bolani, kattalarni bolalarga kasbiy munosabatining ijtimoiy xohlovchi obrazi mezon bo'yicha bolalarni to'g'ri qabul qilishmoqda.

«Avtoritar» ko'rsatkichi yuzasidan olib borilgan test natijalarida ahamiyatga molik farqlar aniqlandi $p \leq 0,05$ bo'lib, bu mezon bo'yicha ota-onalar ustunlikka ega, ya'ni ular farzandlari bilan munosabatda kattalar bolalardan so'zsiz itoat va tartib-intizomni talab qiladilar.

«Kichik omadsiz» shkalasi bo'yicha tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi, ya'ni $p \geq 0,067$ natija qayd etildi. Demak ular bolalarga munosabat qilishda ularning qiziqishlariga jiddiy bo'lmagan holatda qabul qiladilar. Bu mezon bo'yicha me'yor ball 2 ballni tashkil etadi, aksariyat ota-onalarimizda va tarbiyachilarimizda bu mezonning natijasi 3-4 ballni tashkil etdi. Bu natija esa ota-onalar ham, tarbiyachilar ham bolani qattiq nazoratda ushlab turish lozim degan fikrlari mavjudligidan dalolat beradi. Bu holat ham bolaning tajavuzkorligi oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi «6-7 yoshli bolalardagi agressivlik holatlarni oldini olish va psixokorreksion ishlar tahlili» deb nomlangan. Unda boladagi agressivlik holatlari, muammolarni oldini olish va bartaraf etish uchun tashkillangan korreksion dastur amalga oshirilgan. Quyidagi 1-rasmda aniqlovchi va nazorat tajribalari natijalari bayon etilgan.



1-rasm. Aniqlovchi va nazorat tajriba natijalarining qiyosiy tahlili.

Yuqoridagi 1-rasmda shahar hududida yashovchi sinaluvchilarda aniqlovchi tajribada bo'lgan natijalar uch oylik korreksion dastur o'tkazilganidan keyin nazorat tajribadagi natijalari bilan X^2 mezoni bo'yicha solishtirildi va qiyosiy natijalar aniqlandi. Unga ko'ra, «O'zingni angla» metodikasi bo'yicha aniqlovchi tajribada o'rtacha arifmetik qiymat 5,4 natijani qayd etgan bo'lsa, nazorat tajribada esa o'rtacha arifmetik qiymat 3,8 ni tashkil etdi. Agressiya belgilari metodikasi aniqlashtiruvchi tajribada o'rtacha arifmetik qiymat 11,9 natijani qayd etgan bo'lsa, nazorat tajribada o'rtacha arifmetik qiymat 10,1 ni tashkil etdi. «Bola kattalar nigohida» metodikasida esa aniqlashtiruvchi tajribada o'rtacha arifmetik qiymat 1,92ni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat tajribada o'rtacha arifmetik qiymat 1,08ni tashkil etdi, ya'ni $1,92 \geq 1,08$ ko'rsatmoqda. Korreksion dasturda olib borilgan metodikalar asosida bolalarning agressivlik darajasi past tahlillarni qayd etganligini ta'kidlash lozim. Shahar hududida yashovchi sinaluvchilarimizning har bir metodika natijalarini psixokorreksion dasturdan so'ngi natijalarini ularda ijobiy, salbiy va hech qanday o'zgarish mavjud bo'lgan yoki mavjud bo'lmaganligini tahlil qilishni ham maqsadga

muvofiq deb hisobladik va quyidagi 4-jadvalda metodikalarning tahliliy, qiyosiy natijalarini keltirib o‘tdik.

4-jadval.

Nazorat tajribaning Vilkokson mezoni bo‘yicha natijalari

Vilkokson mezoni ko‘rsatkichlari	Podlasiy «O‘zingni angla» metodikasi	Monina va Lyutova «Agressiya belgilari» metodikasi	Romanova «Bola kattalar nigohida» metodikasi
Ijobiy o‘zgarishlar	79	82	86
